

YUKSAK MA'NAVIYAT-YENGILMAS KUCH

Manzura O'teniyazova

*Qoraqolpoq davlat universiteti Qoraqolpoq filologiyasi va jurnalistika fakulteti 3-“A”
Noshirlilik ishi talabasi*

Anotatsiya: *Ushbu ilmiy ma'qolada O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch asari, uning davlatimiz, jamiyatimiz ma'naviy hayotidagi o'rni tahlil qilingan.*

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" nomli kitobi, hech shubhasiz, ana shunday nodir va ibratli kitoblardan biri hisoblanadi. Kitobning umumiy tuzilishi, ma'no-mazmuni, keng kitobxonlar uchun mo'ljallab yozilganligi bilan ajralib turadi.

Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch

"Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obru-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulgayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bogliqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.".

Islom Karimov

Bugun biz tarixiy bir davrda xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug - maqsadlar quyib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarни qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

«-O'zingiz o'ylab ko'ringlar, aziz dustlar, mustabid tuzum, mustamlakachilik davrida biz kim edik?

- Takdirimiz, erkimiz kimlarning qulida edi? - Ka'ba deb qaerga sig'inar edik? Xar tong «Assalom!..» degan madhiya ohanglari ostida kimlarga qulluk qilib uygondardik?

- Tilimiz, dinimiz qay axvolda edi? Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Nakshbandlarning muqaddas xoklariga e'tibor bormidi? Amir Temur, Bobur Mirzo va boshka ulug' bobokalonlarimizning buyuk nomlari qaysi tuproqlarda korishib yotgan edi?

- Milliy gururimiz, insonlik sha'nimiz, urf-odatlarimiz qanday tushunchalarga almashtirilgan edi? - Xo'sh, o'zimiz-chi? O'zimiz o'zligimizni bilarmidik? Qanday mu'tabar zamin, ulug' ajdodlarimizning o'lmas meroslari bilan oziklangan elning farzandlari ekanimizni anglarmidik? Aytinglar, o'sha kezlari O'zbekistonni dunyoda birov bilarmidi? Birov biz bilan xisoblasharmidi? - Yurtimiz qanday va qancha beqiyos boyliklar xazinasi ekanidan qay birimiz xabardor edik?

- Guyo milliy iftixor bo'lmish paxta, xaqiqatda milliy g'urur o'rniga buyinturuq bo'lib, xalqimizni yalangosh qilishdan, boshimizga azob-uqubat, ta'na-malomatdan boshqa nima keltirardi?"

Darxaqiqat, yaqin tarixda xalqimiz o'z boshidan kechirgan bunday azob-uqubatlarni, taqdirimiz jar yoqasida turgan mash'um kunlarni unutishga bizning aslo xaqqimiz yuq.

Shu bilan bir qatorda Muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch" asarini aytmaslikning iloji yo'q.

Dunyoda shunday kitoblar bo'ladi, ular avvalo insonning ongiga ta'sir etib, ko'p bilim, fikr va ma'lumotlar beradi, dunyoqarashini, tafakkurni kengaytirishda muhim o'rinni tutadi. Boshqa bir kitoblar borki, avvalambor insonning ko'ngliga, hissiyot olamiga ta'sir etadi, uning tuyg'ularini tarbiyalashga, qalb ko'zini ochishga xizmat qiladi. Ayni paytda bu kitoblarning barchasiga xos xususiyatlari o'zida mujassamlashtirgan, har jihatdan noyob, qadrli asarlar ham bo'ladi. Ular ham ongimizga, ham ruhiyatimizga barobar ta'sir etadi, o'zining ma'rifiy quvvati bilan ham tafakkurimizni yuksaltiradi, ham qalbimizni nurafshon etadi, nafaqat bir inson, balki butun jamiyat hayotidagi qarashlarni o'zgartirib, go'zal va betakror ma'naviy fazilatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respubliakasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" nomli kitobi, hech shubhasiz, ana shunday nodir va ibratli kitoblardan biri hisoblanadi. Kitobning umumiyligi tuzilishi, ma'no-mazmuni, keng kitobxonlar uchun mo'ljallab yozilgan assardir. "Ayni paytda unda yoritilgan mavzusi, o'rtaga qo'yilgan muammo va masalalar, tadqiqot obyekti, ilmiy nazariy xususiyatlari nuqtai nazaridan g'oyat keng qamrovli, murakkab va serqirra, shu bilan birga, o'ziga xos noyob asar ekanini ko'pgina misollarda ko'rish mumkin"^[1,68]. Avvalo, shuni aytish kerakki, insonning nafaqat ichki olami, balki jamiyat va davlat hayoti bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy faoliyatdan tortib, uning shaxsiy turmush tarzi, harakat va intilishlarini qamrab oladigan ma'naviyat hodisasining o'zi shu paytgacha ilmu fanda chuqur va fundamental asosda yoritilib, tadqiq etilmagan. Ma'lumki, Sharqda va G'arb olamida davlat yoki jamiyat, odil hukmdor, xalq va millat, dunyoning o'tkinchiligi ruhning abadiyligi to'g'risida, inson haqida, iqtisodiyot, falsafa, madaniyat, adabiyot va san'at haqida xullas, odamzotning taqdiriga bevosita daxldor bo'lgan masalalar bo'yicha ko'plab fundamental asarlar yaratilgan. Lekin ma'naviyat fenomenini dunyoviy nuqtai nazardan, ilmiy va amaliy jihatdan har tomonlama tadqiq etadigan mukammal asar bizda shu paytga qadar yaratilmagani ayni haqiqat. Bu haqda gapirganda, buning bir qancha ijtimoiy tarixiy, ilmiy-nazariy sabablari borligini ta'kidlab o'tilgan. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" kitobi nega aynan shunday deb atalgan? Nima uchun zamonaviy qurol yarog'lar, moddiy yoki moliyaviy resurslar emas, aynan ma'naviyat yengilmas kuch, deb atalmoqda? Yon atrofimizga nazar tashlaydigan bo'lsak ayrim mamlakatlar uglevodorod xomashyosi yoki boshqa qazilma boyliklarni sotish evaziga orttirayotgan mo'may daromadi hisobidan jahondagi yetakchi davlatlar qatoriga chiqish, iqtisodiy ko'rsatgichlarini oshirishga urinayotganini ko'ramiz. Yoki yana bir qator mamlakatlar harbiy kuchga zo'r berib, o'zining qudratini namoyish etishga harakat qilmoqda. Bu kitobda esa ma'naviyatning ana shunday omillardan ham ko'ra qudratliroq ekani asoslab berilgan. Chunki moddiy va moliyaviy resurslar texnik va texnalogik

imkoniyatlarni kuchaytirishi mumkin. Lekin ma'naviyat ana shunday texnika va texnologiyalarning ijodkori va bunyodkori bo'lgan insonga beqiyos kuch beradi, uning nafaqat vujudini, balki har bir hujayrasini ezgulik himoyasida mustahkam turadigan qudratli kuchga aylantiradi.

Albatta hozirgi texnologik taraqqiyot zamonida moddiy va moliyaviy resurslar ham, harbiy qudrat ham kerak, buni hech kim inkor etmaydi. Bu borada O'zbekiston hech kimdan kam emas, kam bo'lmaydi ham. Lekin ana shu texnik va texnologik salohiyatni xalq va Vatan manfaatiga xizmat qildirish, insoniylik yo'lida safarbar etish uchun avvalo nima kerak? Avvalo, intellektual salohiyat, zamonaviy bilim va tajriba, iroda va qat'iyat, muxtasar aytganda, ma'naviyat kerak.

Chunki Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov har bir nutqi va ma'ruzasi, maqola va asarida yuksak ma'naviyat kelajak poydevori ekanligini qayta-qayta ta'kidlaganlar. "Zero, deb uqtiradi Islom Karimov, biz jamiyatimiz taraqqiyotini faqatgina iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik bilangina emas, xalqimizning ma'naviy barkamolligi, demokratik va insonparvarlik tamoyillarining kishilar ongida nechog'lik chuqur ildiz otishi bilan baholaymiz"

Ayniqsa, kitobda ma'naviyat tushunchasiga berilgan ta'rifda bu fikrlar juda chuqur va bat afsil o'z ifodasini topgan: "Ma'naviyat - insonni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir".

Demak ruhi pok, irodasi baquvvat, iymoni butun, vijdoni uyg'oq odamni yengib bo'ladi? Ana shunday fazilatlarga ega bo'lgan butun bir xalqni-chi? Aslo . Shuning uchun ham muallif ma'naviyat timsolida inson, jamiyat va davlat uchun yengilmas kuch manbaini ko'radi va bu qarashni ilmiy-falsafiy asosda isbotlab beradi. Tabiiyki, butun bir xalq yoki mamlakat ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotining strategik yo'naliishlarini, bu boradagi dolzarb maqsad va vazifalarni belgilab, inson va uning ma'naviy olamiga xos belgi va xususiyatlarni yangicha qarashlar negizida yoritib beradigan bunday kitoblar bir-ikki yilda yaratilmaydi. O'zining ma'no mazmuni, mavzusi va ko'tarilgan muammolarning qamrovi, yo'naliishiga ko'ra noyob bo'lgan bunday asarlar nafaqat muallifning, balki u mansub bo'lgan xalq va millatning ko'p yillar davomidagi hayotiy, ijtimoiy-siyosiy tajribalari, jahonda sodir bo'layotgan voqealarning tahlili zaminida yaratilishi shubhasiz. Shu nuqtai nazardan muallifining kitob muqaddimasida uning dunyoga kelishiga sabab bo'lgan 5 ta muhim omil haqidagi fikrlari e'tiborga sazovordir.

Birinchidan, kitob insonning yuksalishida ma'naviyat olamining qanday ta'sir va ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish;

Ikkinchidan, ma'naviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida atroflicha fikr yuritish;

Uchinchidan, xalqimiz yangi hayot, yangi jamiyat asoslarini qurayotgan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda odamlarni bunday xatarlardan ogoh etish;

To'rtinchidan, el-yurtimiz, keng jamoatchilik e'tiborini bu masalalarga yana bir bor qaratish;

Beshinchidan, kelajak avlodimizni ma'naviy sog'lom etib tarbiyalash bilan bog'liq vazifalarni aniq belgilab olish borasidagi hayotiy ehtiyoj mahsuli sifatida dunyoga kelgan.

Bu asarga xalqimizning ma'naviy yuksalishiga oid bir qancha yangi g'oya va qarashlar bayon etilgan. Lekin xalqning, jamiyatning kelajagi uning ma'naviyatiga bog'liq, degan fikr o'zak g'oya sifatida kitobning asosiy yo'nalishi va mazmunini belgilab beradi. Ma'lumki, eski tuzum davrida bizga nisbatan "Sen o'ylama, sen uchun boshqalar o'ylaydi, sen paxtangni bil", degan g'ayriinsoniy munosabat mavjud edi. El-yurtimizning ko'zlari bog'langan, ongi va ruhi qaram qilingan edi. Endi o'zimiz qaror qilib, o'zimiz amalga oshirish, o'z aqlimiz, kuch va imkoniyatimiz bilan o'z hayotimizni qurish, mustaqil siyosat yuritish huquqiga egamiz. Ayni paytda bunday ulug'vor ishlarning mas'uliyati ham o'z zimmamizda. Tabiiyki, bunday erkin va ozod hayot, bunday imkoniyatlar xalqimizning vujudida mudrab yotgan, necha necha ajdodlardan o'tib kelayotgan kuchni uyg'otib yubordi. Bosib o'tgan 22 yillik taraqqiyot yo'limiz buning yaqqol isboti bo'la oladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, muallifning ko'p yillik kuzatishlari, fikr va mulohazalari mahsuli bo'lgan, har tomonlama teran ilmiy va hayotiy qarashlarga asoslangan ushbu kitob to'rt bobdan iborat bo'lib, uning ma'naviyat sohasiga oid qonun va kategoriylar, tushuncha va tamoyillar yaxlit bir tizim sifatida tahlil etilgan. Aytish mumkinki, shu asosda ma'naviyatning mazmun-mohiyati, uning inson va jamiyat, millat va davlat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati haqida yaxlit ilmiy-falsafiy, nazariy metodologik ta'limot yaratilgan.

E'tiborga sazovor yana bir jihat shundaki, kitobda ko'tarilgan muammolar, ilgari surilgan g'oya va qarashlar, turli masalalar yuzasidan bayon qilingan fikr mulohaza va xulosalar nafaqat bir millat, jamiyat yoki davlat, balki butun bashariyatga xos bo'lgan umuminsoniylik va bag'rikenglik tamoyillari assosida yoritib berilgan. Ma'naviyat tushunchasining ma'no-mazmuni va u bilan bog'liq masalalar dunyodagi barcha xalqlar va mintaqalar uchun umumiyl bo'lgan global muammo sifatida tavsiflangani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod janiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'r'in egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkin.

Nafaqat davlat rahbari, avvalambor, buyuk tarix, madaniyat va ma'naviyat egasi bo'lgan xalqimizning bir farzandi sifatida, ana shu beba ho boylikni asrab avaylash, uni har xil oshkora va pinhona xurujlardan himoya qilish haqida qayg'uradigan bir inson sifatida yuqorida zikr etilgan o'ta muhim va o'ta nozik bu masalalar yurtimizda yashaydigan har bir insonni albatta havotirga solishi tabiiy holdir.

Ushbu kitob insonning yuksalishida ma'naviyat olamining qanday ta'sir va ahamiyatga ega ekani, shuningdek, ma'naviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi

haqida atroflicha fikr yuritish, xalqimiz yangi hayot, yangi jamiyat asoslarini qurayotgan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda odamlarni bunday xatarlardan ogoh etish, el-yurtimiz, keng jamoatchilik e'tiborini bu masalalarga yana bir bor qaratish, kelajak avlodni ma'naviy sog'lom va barkamol etib tarbiyalash bilan bog'liq vazifalarni aniq belgilab olish borasidagi hayotiy ehtiyoj sifatida dunyoga keldi. Yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek hozirgi kunda ma'naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo'yish kerak, deb so'rasha, Yurtboshimiz shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyormizdagи barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashash zarur deb javob bergen bo'lar edim deb aytganlar. Ana shunday noyob insoniy fazilatlarga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan xalq hech kimga hech qachon qaram bo'lmaydi, o'zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. Toshkent, "Ma'naviyat" 2008.- 68 bet
2. Karimov I.A. Keljakni jasoratli odamlar quradi. "Xalq so'zi" gazetasi, 1999-yil, 17-fevral.
3. O'sha asar. 19-bet.
4. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-16-bet
5. Nabihev, M. (2020). O'ZBEKİSTONDA DEMOKRATİK JAMİYAT RIVOJIDA UTOMOİY-MA'NAVİY QADRIYATLATLARNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI. 1(1). извлечено от https://science.i.edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1113